Iqtisodiy taraqqiyot jarayonida tarkibiy o'zgarishlarning boshlang'ich bosqichida umumiy bandlikda qishloq xo'jaligi sohasining asosiy o'rin egallashi, mehnat resurslari tarkibida past malakali ishchilarning ko'p salmoqli bo'lishi, mehnat unumdorligining pastligi va kam ish haqi kuzatiladi. Fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarishga ta'sirining ortishi, qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashuvi natijasida qo'l mehnatining qisqarishi, texnologik jarayonlarning takomillashuvi qishloq xo'jaligida daromadning ortishiga olib keladi. Bu esa shaharlarda yaratilayotgan tovar va xizmatlarga talabning ortishiga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining o'sishi qishloqdagi bo'sh qolgan mehnat resurslarini shaharga jalb etadi. Ushbu jarayon mehnat unumdorligining oshishiga, iqtisodiy faoliyatning unumli turlarining paydo bo'lishiga, ishlab chiqarish jarayonining takomillashuvi va murakkablashuviga hamda daromadlarning o'sishiga olib keladi. Urbanizatsiya hodisasining mohiyati aynan mana shu jarayonlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida aks etadi.

Urbanizatsiya – murakkab, majmuaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, hayotning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilmiy-intellektual sohasini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi muhitning transformatsiyasini anglatadi. Bunda qishloq joylaridan shahar hududlariga aholi migratsiyasi natijasida aholi hududiy qayta taqsimlanadi, qishloq hududlari shahar joylariga aylanadi.

Urbanizatsiya natijasida vujudga keladigan asosiy hodisalar quyidagilardir: shahar joylari sonining ortishi, shahar yer hududlarining kengayishi, shahar joylarida aholi soni va ulushining ortishi. Urbanizatsiya hududni hamda shaharni rejalashtirish, qurilish va infrastrukturaga davlat va xususiy investitsiyalar kiritish orqali shakllanadi. Bugungi kunda shaharlashish inson kapitali va innovatsiyalar rivojlanishi, ixtisoslashuv va diversifikatsiya jarayonlarining yuzaga kelishi va chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

Amerikalik olim E. Glezer shaharlarning ravnaq topishida shaharning yosh, iste'dodli va ma'lumotli insonlarni jalb etishi, ta'lim va ilmning rivojlanishi, innovatsiyalar, g'oyalar, kashfiyotlar paydo bo'lishi va ularning amaliyotga qo'llanishini asosiy manba sifatida ko'rsatadi. Turli xil shaharlar iste'dodlarni turlicha jalb etadi:

- siyosiy hokimiyat va puxta tadbirkorlik strategiyasidan foydalangan holda (masalan, Tokio);
- iqtisodiy erkinlik va qonun ustuvorligi bilan (Gonkong, Singapur);
- iqtisodiy rivojlanish asosi sifatida universitetlarga tayanish orqali (Boston, Minnepolis, Atlanta);
- hayot sifati bilan (Parij, Dubay);
- yangi qurilishlar va arzon uy-joy bilan (Chikago, Xyuston).

Rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharlar rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ko'proq ahamiyatga ega. Ular innovatsiyalarni rivojlantiribgina qolmay, balki bozorlar va madaniyatlar o'rtasida bog'lanish yuz beradigan portallar rolini ham o'ynaydi.

Bundan tashqari, M. Stoplarning fikriga ko'ra, shaharning samarali rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar, firmalar amaliyoti va shahar iqtisodida shakllantirilgan ekologiya bilan korrelyasiyalashuvchi ishlab chiqarish ixtisoslashuvi mavjud. Olimning fikricha, aynan ma'lum bir tovar yoki xizmatning ixtisoslashuvi kerakli malakaga ega bo'lgan ishchiga talabni shakllantiradi. Ish o'rni va ish haqi darajasi mehnat migratsiyasining asosiy drayverlaridir.

Dunyoda aholi punktlarini shahar sifatida baholash mezonlari asosan ma'muriy (poytaxtlarni, ma'muriy markazlarni, shahar joylarni qonun bilan belgilash), iqtisodiy (iqtisodiy faoliyat turiga qarab), aholi soni va zichligiga, shahar muhiti belgilari – suv etkazib berish tizimi, oqava suv tizimi, elektr ta'minoti tizimi, sanitariya-



gigiyena shart-sharoitlarini ta'minlash tizimi, obodonlashtirish hamda yillarni yoritish va boshqalar bilan belgilanadi.

Yuqori daromadli mamlakatlarda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ularning barchasida urbanizatsiyaning yuqori darajasi kuzatiladi: qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning soni mehnat resurslarining o'rtacha 3% ini, xizmatlar sohasida esa 64% ni tashkil etadi. 2019-yilda O'zbekiston YAIM tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 1996-yilga nisbatan yuqori bo'lganligi Xalqaro Bank axborotnomasida qayd etilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi Evropaning yuqori daromadga erishmagan mamlakatlari va Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan besh barobar yuqori, xizmatlar ulushi esa ikki barobar past bo'lganligi qayd etilgan. Urbanizatsiya darajasi yaqin bo'lgan mamlakatlar bilan solishtirganda O'zbekistonda YAIMda qishloq xo'jaligining ulushi eng yuqori bo'lib, xizmatlar ulushi eng past ko'rsatkichlar qatorida turadi. Bu raqamlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston shaharlari aglomeratsiya samarasini yetarli darajada shakllantirmayapti va iqtisodiy o'sishda kerakli etakchilik mavqesini namoyon etmayapti.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va optimallashtirish masalalarini ko'rish bilan bir qatorda, mamlakatimiz hukumati qishloq hududlarini qisqartirish, qishloq mahallalarining obodonligini oshirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlash va mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishi qatorida qolgan mintaqa va tumanlarni rivojlantirishda ularning urbanizatsiya salohiyatini oshirish uchun bir qator hujjatlar qabul qildi.

Ushbu hujjatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 48-son "O'zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori;
- 2019-yil 5-iyundagi 461-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika hududlarida "Business City" zamonaviy ishbilarmonlik markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
- 2024-yil 10-sentyabrda Prezident tomonidan imzolangan "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-960-son Qonuni;
- shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

Rasmiy statistika ma'lumotlari va Qashqadaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishidan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda Qashqadaryo aholisining 42,8% ini shahar aholisi, 57,2% ini esa qishloq aholisi tashkil etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, viloyat tarkibidagi jami 117 ta shaharchaning 112 tasi 2009-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan qishloq aholi punktlari shaharchalarga aylantirilgan.

2009-yil respublikamizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilinishi va bu borada maxsus davlat dasturining ishlab chiqarilishi munosabati bilan mingga yaqin qishloq joylarga shaharcha maqomi berildi. Natijada, shaharchalar soni va umumiy urbanizatsiya darajasi keskin ko'tarildi. Bu holat respublikada urbanizatsiya jarayonining ikkinchi to'liqini sifatida talqin qilinishi mumkin.

Qarshi va Shahrisabz respublika va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar hisoblanib, 12 shahar asosan tumanlar markazlari hisoblanadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Qarshi va Shahrisabz shahri aholisi viloyat aholisining 12,25% ini, qolgan shaharlar aholisi 10,2% ini, shaharchalar aholisi 20,3% ini tashkil etadi. Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatining jami shahar aholisi 42,8% ni tashkil etadi.

Viloyatda urbanizatsiya darajasini yanada aniq bilish uchun tumanlar aholisini shahar va qishloq aholisi soniga guruhlashtiramiz:

- Shahar aholisi ko'p tumanlar – Muborak tumani (64,3%), Nishon tumani (60%), Koson tumani (52,6%);
- Qishloq aholisi ko'p tumanlar – Ko'kdala tumani (84,3%), Dehqonobod tumani (80,9%), Qamashi tumani (79,9%), G'uzor tumani (76,4%), Shahrisabz tumani (75,9%), Chiroqchi tumani (71,2%), Yakkabog' tumani (67,4%), Qarshi tumani (63,7%), Kitob tumani (62,7%), Mirishkor tumani (61,7%), Kasbi tumani (61,4%).

Qashqadaryo viloyatida faqat Qarshi va Shahrisabz shaharlari aholisi soni 50 000 nafardan oshadi. Shahar mahallalarining cho'zilib, shahar ma'muriy chegaralaridan chiqib ketishi va shaharlarning mahallalari cho'zilishi hisobiga kengayishi shaharlarda urbanizatsiya jarayonlarini aniq tahlil qilishni murakkablashtiradi. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston shaharlarining mamlakat iqtisodida etarli samarasi bilan ishtirok etmayotganligi va shahar aglomeratsiyasi jarayonlari sust borayotganligining asosiy sabablaridan biri shaharlarning mahallalari cho'zilishi hisobiga kengayishidir.

Ma'muriy chegaralar bilan aniqlanadigan demografik ma'lumotlar urbanizatsiya hodisasining masshtabini etarli darajada aniqlamaydi, deyiladi ma'lumotda. Urbanizatsiya hodisasini aniqlash va asoslash ko'rsatkichlari va belgilari har bir mamlakatda turlicha bo'lganligi sababli shaharlarni taqqoslash amaliy nuqtai nazardan mumkin emas. Shu sababli, Evropa Komissiyasi urbanizatsiya darajasi metodologiyasida (BMT tomonidan ma'qullangan) shaharlarni aniqlashning ikki turini taklif etadi:



- Shahar klasterlari – maydoni 1 km² da aholi zichligi 300 yashovchi/km² va umumiy aholi soni 5 000 kishi bo'lgan o'zaro bog'liq yacheykalar to'ri (past zichlik chegarasi);
- Shahar markazlari – maydoni 1 km² da aholi zichligi 1 500 yashovchi/km² va umumiy aholi soni 50 000 kishi bo'lgan o'zaro bog'liq yacheykalar to'ri (yuqori zichlik chegarasi).

Oxirgi 15 yil ichida O'zbekiston shaharlarida kengayish, bir qavatli uy-joylarning ko'payishi hisobiga shahar ma'muriy hududlaridan chiqib, qishloq xo'jaligiga yaroqli erlarni kamaytirish hisobiga amalga oshmoqda. Qarshi shahrida aholi ko'payishi shahar klasterlarini hosil qilishiga va natijada yaqin hududlar tutashib shahar aglomeratsiyalarini shakllantirdi.

Qashqadaryo viloyatida aholi zichligi (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra) 1 km² da 124,6 kishi bo'lib, Qarshi shahrida 1 km² da 3 695,0 kishi, Shahrisabzda 1 km² da 2 944,0 kishini tashkil etadi. Agar tumanlarda aholi soni zichligiga e'tibor qaratsak, eng yuqori ko'rsatkichlar Kasbi tumanida 1 km² da 327,7 kishi, Qarshi tumanida esa 1 km² da 299 kishini tashkil etadi.

Aholi zichlashishini shaharlashishning muhim tamoyili deb qarash mumkin. Chunki iste'molchilar sonining ortishi talabning o'sishiga, transport xarajatlarining qisqarishiga, yirik inshoot va infratuzilma ob'ektlaridan foydalanishning arzonlashuviga, xilma-xillikning paydo bo'lishiga, ilm va yangiliklarning ko'payishi hamda amaliyotga keng jalb qilinishiga, qo'llanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Qarshi O'zbekiston Respublikasining janubiy hududidagi muhim transport tuguni bo'lib, o'zida O'zbekistonning g'arbiy, sharqiy va janubiy qismlarini birlashtiruvchi yo'l tarmoqlarini birlashtiradi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo hududiy iqtisodiy hamkorligining Evropa, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyoni birlashtiruvchi 6-koridorining bir qismi hisoblanadi.

Shahar maydoni 75,51 km² ni tashkil qiladi, aholining soni jihatidan respublika shaharlari orasida 8-o'ringadidir. Shahar aholisining o'sishi 1960-yillardan keyin tez ko'payib bordi. Masalan, 1959-yil aholi ro'yxati bo'yicha shaharda 33 ming kishi yashagan bo'lsa, 2024-yilda 300,8 ming kishiga yetdi. Aholining bunday ko'payishi birinchi navbatda Qarshi cho'lini o'zlashtirish munosabati bilan, shuningdek, viloyat hududidan tabiiy manbalarning ko'plab topilishi shahar xo'jaligini rivojlantirish imkonini yaratdi. Bu esa shaharga ko'plab kishilarning kelib joylashishiga sabab bo'ldi.

Hayot uchun qulay shart-sharoit yaratilgan muhitda aholi konsentratsiyasi oshib boradi. Biznes erkinligi qabul qilingan qonun va me'yoriy normalar bilan kafolatlangan, resurs va manbalarga erishishning barcha ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari uchun teng imkoniyat va sharoitlari ta'minlanganda tadbirkorlik sub'ektlari soni ortadi, masshtab samarasi yuzaga kelib, korxonalar va tashkilotlar faoliyati kengayadi, yondosh ishlab chiqarish turlari ortib boradi, ixtisoslashuv yuzaga kelib, yangi tarmoqlar va sohalar paydo bo'ladi.

Ish haqi yuqori bo'lgan shahar qishloq hududlardan ishchi kuchini jalb etadi. Infratuzilmaning rivojlanishi, aholi konsentratsiyasi (ishchilar ayni vaqtda iste'molchilar), masshtab samarasi aglomeratsiya iqtisodini yuzaga keltiradi. Sinergetik samara yuzaga keladi. Shu sababli dunyo miqyosida, xususan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bir yo'nalishi urbanizatsiyalashgan hududlarni kengaytirish, qishloq hududlari uchun shaharlarda yaratiladigan xizmatlar va ichki bozor imkoniyatlarini o'sish qutbi sifatida baholash maqsad sifatida qaralgan.

Qarshi shahrining Bosh rejasida 2013-yilda qabul qilinib, 2030-yilgacha amal qiladi. Shahar aholisining o'zgarishi va shahar hududining kengayishi shahar Bosh rejalariga mos kelmagan holda kechgan: 1986-yilda 129 ming aholidan, Bosh rejada qayd etilgan 300 ming aholi soniga mos kelmagan holda 2005-yilga kelib 212 mingga etgan.

Bunga teskari holda, shahar hududi 2013-yilga kelib 8 501 ga kengaygan, vaholanki, Bosh rejada shahar hududi 1986-yilda 4 340 ga, 2005-yilda qurilish uchun belgilangan 7 551 ga qilib belgilangan edi.

Qarshi shahrining uy-joy qurilishi hisobiga kengayishi shahar atrofidagi kichik shahar joylari va qishloqlar hisobiga yuz berdi. Tadqiqotlarga ko'ra, shaharlarning bu tarzda kengayishi shahar infratuzilmasida jiddiy nuqson va kamchiliklar mavjudligi sababli shahar hududining eniga kengayishi oshib ketadi. Yuqori qavatli uy-joylarning qurilishi uchun infratuzilma quvvatining etishmasligi, suv zaxiralarning kamligi, oqava suv tarmog'ining etarli darajada shakllantirilmaganligi shaharlarning aholi ehtiyojini bir qavatli uy-joy qurish hisobiga qondirish shaharning noratsional kengayishiga olib kelgan.

2013-2030-yillarga mo'ljallangan Qarshi shahrining Bosh rejasida ham shaharning bu tarzda kengayishi rasmiy qayd etilib, shahar maydoni 8 501 ga dan 17 696 ga kengayishi, shahar aholisi 430 000 gacha oshishi belgilangan. Bugungi kunda qurilayotgan "Qarshi Siti"ning ko'p qavatli imoratlarini suv bilan ta'minlash qiyinchiliklar tug'dirmoqda, chunki shahar cho'l hududida joylashgani uchun suv Kitobdan 198 km quvur o'tkazmasi orqali etkaziladi.

Qashqadaryoda aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 2024-yil 1-yanvarga kelib 59,4 foizga etdi. Xonadonlarning ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi butun viloyat miqyosida 37,1%, shahar hududlarda 43,8%, qishloq joylarda 31,0% ni tashkil etadi. Kwartira (uy)larning oqava suv ta'minoti bilan ta'minlanishi viloyat miqyosida 33,0%, shahar joylarda 43,8%, qishloq joylarda 24,8% ni tashkil etadi.



Viloyatda uy-joylar qurilish ko'lamini sezilarli darajada o'sganiga qaramay, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji pastligicha qolmoqda. 2023-yil 1-yanvar holatida viloyatda shahar aholi punktlarida bir nafar aholiga o'rtacha uy-joy fondi 17,1 m² ni tashkil etgan bo'lsa, qishloq joylarida 16,3 m² ni tashkil etadi.

Viloyat bo'yicha 2023-yilda maqsadli ko'p qavatli uy-joylar qurilishi dasturining maqsadli ko'rsatkichlari bo'yicha viloyatda 5 020 ta xonadonli 168 ta uy qurilishi rejalashtirilgan, shundan Qarshi shahrida 1 617 xonadonli 30 ta uy qurilishi amalga oshiriladi. 2023-yilda Qashqadaryo viloyatida dasturlar asosida jami ajratilgan kreditlar 949,3 mlrd so'm bo'lib, shundan 211,0 mlrd so'm (22,2%) Qarshi shahriga to'g'ri keladi. Mahalliy budjetga tushum viloyat shahar va tumanlari orasida yuqori o'rinda bo'lib, 131,7 mlrd so'mni tashkil etadi. Qarshi shahri Qarshi tumanining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi.

Urbanizatsiyalashgan hududlarning muhim xususiyati bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni uchun xizmat qiladigan er maydonlari tuzilmasiga joylashtirilgan injenerlik inshootlari, turli xil kommunikatsiya vositalari, er yuzida qurilgan binolar va inshootlar, ijtimoiy ob'ektlar, transport va boshqa infratuzilma birliklarning tizimi hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyatining shahar maqomiga loyiq ikkinchi respublika bo'ysunuviga qarashli shahar Shahrisabz shahridir. Shahrisabz shahri Shahrisabz tumanining markazida, Qashqadaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan, Qarshi shahridan 107 km uzoqlikda joylashgan. Shaharda aeroport va temir yo'l stansiyalari mavjud. Umumiy er maydoni 0,05 ming km² ni tashkil etadi. Ichimlik suvi bilan ta'minlanish 85,7%, shahar aholisining 46,4% tabiiy gaz bilan ta'minlangan.

2023-yilda dasturlar asosida Shahrisabz shahri uchun jami ajratilgan kreditlar 33,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Mahalliy budjet tushumlari 68,4 mlrd so'mni tashkil etadi. Shaharda 2 ta yirik korxonalar joylashgan: "Shahrisabz vino aroq" AJ va "Hisorakgidroqurilish" MCHJ.

2024-yilda Shahrisabz Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT) tomonidan turizm poytaxti deb e'lon qilindi, bu shahar turizmi va iqtisodiyoti rivojlanishi uchun muhim voqea bo'ldi. Shahrisabzda turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturizm va etnoturizmni rivojlantirish hamda turizm tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu choralar yangi ish o'rinlari yaratishga va mahalliy aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuni aytib o'tish lozimki, Shahrisabz aholisining Qarshi aholisiga nisbatan deyarli ikki barobar kam bo'lishida, Sipf qonunining, ya'ni shaharlarning rang ketma-ketligi (bu yerda, shahar aholisi bo'yicha belgilangan daraja) namoyon bo'ladi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Shahrisabz shahrining aholisi 147,2 ming nafar bo'lib, viloyat aholisining 4,2% ini tashkil etgan holda, viloyatning jami tadbirkorlik sub'ektlarining 1 635 tasi (5,8%) shaharda joylashgan. Ushbu korxonalarining 62,5% i, jumladan sanoatda, 71,6% i 2016-2023-yillarda tashkil etilgan.

Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan 303 ta korxonalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha umumdavlat klassifikatoriga asosan tahlil etilganda, quyidagi ixtisosliklar rivojlanib bormoqda: oziq-ovqat ishlab chiqarish – margarin va omuxta iste'mol yog'larini ishlab chiqarish, sutni qayta ishlash va pishloq ishlab chiqarish, non, oshirilgan konditer mahsulotlari, tort va pirojniylar ishlab chiqarish, turli to'qilgan va trikotaj buyumlar ishlab chiqarish, betondan qurilish buyumlarini ishlab chiqarish, metall eshik va oynalar ishlab chiqarish.

Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarishining 1,6% Shahrisabz shahriga to'g'ri keladi. Agar ushbu jadvalga (1-jadval) murojaat qiladigan bo'lsak, viloyat shahar va tumanlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning turli xil ko'rsatkichlariga duch kelamiz.

1-jadval. 2016-2024-yillarda Qashqadaryo viloyati tuman va shaharlari bo'yicha sanoat o'sishi tahlili

Hudud	Umumiy o'sish (%)	O'rtacha yillik o'sish (CAGR %)	Izoh
Qashqadaryo viloyati	172.0	6.2	Viloyat bo'yicha o'rtacha
Qarshi shahri	179.6	6.7	Barqaror o'sish
Shahrisabz shahri	117.1	1.8	Sust o'sish
G'uzor	142.8	4.0	Sust o'sish
Dehqonobod	109.1	1.0	Sust o'sish
Qamashi	132.3	3.2	Sust o'sish
Qarshi tumani	393.7	16.4	Juda yuqori o'sish
Koson	115.0	1.6	Sust o'sish
Kitob	184.1	7.0	Barqaror o'sish



Mirishkor	190.0	7.4	Barqaror o'sish
Muborak	79.3	-2.5	Qaytib ketish
Nishon	429.3	17.6	Juda yuqori o'sish
Kasbi	184.3	7.0	Barqaror o'sish
Ko'kdala	118.8	1.9	Sust o'sish
Chiroqchi	162.2	5.5	Barqaror o'sish
Shahrisabz tumani	121.8	2.2	Sust o'sish
Yakkabog'	152.9	4.8	Sust o'sish

Izoh: <https://qashstat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni viloyatning urbanizatsiyalashgan hududlari miqyosida ko'radigan bo'lsak, viloyat bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi 2016-2024-yillarda qariyb 72% ga oshgan bo'lib, bu yiliga o'rtacha 6,2% o'sishni tashkil etdi. Biroq hududlar kesimida o'sish sur'ati sezilarli darajada farq qiladi.

Eng yuqori o'sish Nishon tumanida kuzatildi – sanoat hajmi mazkur davrda 429,3% darajagacha o'sib, yiliga o'rtacha 17,6% li juda yuqori o'sishni ko'rsatdi. Shuningdek, Qarshi tumani sanoati ham 393,7% umumiy o'sish bilan (yillik o'rtacha 16,4%) viloyatdagi yetakchi o'sish sur'atini qayd etdi. Bu ikki hududda sanoat ishlab chiqarish bazasi keskin kengaygan (yangi yirik loyihalar ishga tushirilgan hisobiga).

Boshqa ayrim tumanlarda ham sezilarli o'sish qayd etilgan. Masalan, Mirishkor, Kitob va Kasbi tumanlari sanoat hajmi davr mobaynida qariyb, 1,8 barobar oshgan (taxminan 184-190% umumiy o'sish, CAGR ~7% atrofida). Qarshi shahri sanoat ishlab chiqarishi ham davr davomida deyarli 1,8 barobarga o'sdi (179,6%, CAGR ~6,7%). Shahrisabz shahri esa 2017-yildan alohida ko'rsatkich sifatida yuritilib, 2017-2024-yillar oralig'ida sanoat ishlab chiqarishi atigi 17% ga oshgan (yillik o'rtacha 1,8%).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Qarshi va Shahrisabz shaharlari aholi soni va zichligi jihatidan viloyatda etakchi o'rinda turishlariga qaramay, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida yuqori ko'rsatkichlarga ega emas.

Umuman, viloyatda sanoat ishlab chiqarilishini rivojlanish tendensiyalariga baho beradigan bo'lsak, viloyatda asosan gaz ishlab chiqarish va gazni qayta ishlash, elektr energiyasini ishlab chiqarish, kimyo sanoati kabi tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida yirik loyihalar moliyalashtirilgan va amalga oshirilgan.

Qarshi shahri sanoat tarmog'ida rivojlanayotgan ixtisosliklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha umumdavlat klassifikatoriga asosan tahlil etilganda quyidagi sohalar shakllanib bormoqda:

- Non va non mahsulotlari ishlab chiqarish, ichimliklar ishlab chiqarish.
- Tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish bo'yicha – ustki kiyim ishlab chiqarish, to'qilgan va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish.
- Charm va charm mahsulotlari ishlab chiqarish.
- Turli nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – kuydirilgan loydan g'isht, cherepitsa va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish.
- Betondan qurilish materiallari ishlab chiqarish.
- Metall eshik va oynalar ishlab chiqarish.
- Mebel ishlab chiqarish – do'kon va ofis mebeli ishlab chiqarish, turli mebel ishlab chiqarish ixtisosliklari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aglomeratsiya jarayonlarining rivojlanishi markazida masshtab samarasi yotadi, ya'ni korxonaga tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarmas xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmida pasayishi kuzatilsa, korxonada o'sish tendensiyasi – ishlab chiqarish hajmining ortishi, mutaxassislarni yollash, yangi tarmoqlarda faoliyatni yo'lga qo'yish kabi jarayonlar yuz bersa, aglomeratsiya samarasi hosil bo'ladi.

O'z navbatida, hududlarda aholi zichligini oshirishda ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish, shahar infratuzilmasi imkoniyatlarini yaratish va kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish kabi maqsad va vazifalarni kerakli xajmda moliyalashtirish, bunda xorijiy investitsiya mablag'larini keng jalb qilish lozim bo'ladi.

Hududda tadbirkorlik faoliyatini yana rivojlantirish hudud biznes jamoasini hosil qilish va ularni hududda aglomeratsiya jarayonlarini rivojlantirishga keng jalb qilish, bunda davlat-sherikchilik mexanizmlarini keng joriy etish kerakli samaralarni beradi, deb hisoblaymiz.



Urbanizatsiyalashishning muhim iqtisodiy xususiyati hududda mehnat unumdorligini oshirishga, mehnat bozorini kengaytirishga, kasb-faoliyat turlarining ortishiga, bilim va texnologiyalar rivojlanishida diffuziya xodisasining manbaini tashkil etish yo'nalishlariga e'tibor qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" №5853-son farmoni. <https://lex.uz/docs/4567334>
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
3. Chevalier P., Dedeire M., Ghiotti S., Hirczak M., & Razafimahefa L. (2010). L'espace rural euro-méditerranéen: approches méthodologique et typologique. Cahiers de Géographie du Québec, 54(152), 291-312.
4. Bański J., & Mazur M. (2016). Classification of rural areas in Poland as an instrument of territorial policy. Land Use Policy, 54, 1-17.
5. Van Eupen M., Metzger M.J., Pirez-Soba M., Verburg P.H., van Doorn A., & Bunce R.G.H. (2012). A rural typology for strategic European policies. Land Use Policy, 29(3), 473-482.
6. Serrano J. (2014). Approches de la ruralité dans trois pays européens (France, Suisse, Pays-Bas). In C. Larrue (Ed.), Le régime institutionnel d'une nouvelle ruralité: Analyses à partir des cas de la France, des Pays-Bas et de la Suisse (pp. 25-59). Bruxelles: P.I.E. Peter Lang.
7. Copus A.K., & Noguera J. (2010). A Typology of Intermediate and Predominantly Rural NUTS 3 Regions. Bruxelles: European Union, p. 51.
8. Berchoux T., Watmough G.R., Hutton C.W., & Atkinson P.M. (2019). Agricultural shocks and drivers of livelihood precariousness across rural communities. Landscape and Urban Planning, 189, 307-319.
9. Dijkstra L., & Poelman H. (2018). Regional typologies overview. Brussels: European Union. [Consulty en novembre 2019].
10. Blanc M. (1997). La ruralité : diversité des approches. Economie rurale, n. 24, 5-12.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>